

ZAFAR DIYORNING O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDAGI O'RNI*Sevinch Valijonova**FarDU pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Maqolamizda bolalar yozuvchisi Zafar Diyorning yosh avlodga qoldirgan boy merosi, uning tabiat va ona yurtiga muhabbati, hayot yo'li, bolalar adabiyotidagi o'rni mavzusida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ona yurt, yosh avlod, dostonlar, ertaklar, "Serquyosh o'lka" she'ri.

Bizning shunday yurtsevar ijodkor adiblarimiz borki, ularning yaratgan har bir asarida o'z vataniga muhabbat, tabiatiga oshuftalik, mehnatsevar xalqiga minnatdorlik shundoqqina sezilib turadi. Ular yozgan bir parcha to'rtlik yokida jumlani o'qigan kishida ham yurtiga faxr tuyg'usi uyg'onadi. Ana shunday yurtini madh etuvchi adiblarimizdan biri shubhasiz Zafar Diyordir. Uning ijodiy merosini varaqlar ekansiz o'nlab kichkina bog'bonlar-u chorvadorlarni, jajji paxtakorlar-u fan-texnika shaydolarini, jasur akalar-u donishmand otalarni, chevar ayollar-u nuroniy onalarni uchratish mumkin. Zafar Diyor o'z xalqini, jannatmakon yurtini, bolalikni ayniqsa, bolalarni sevadi. Aynan shu sevgi, muhabbatni she'rga soladi. Uning she'rlaridan oziqlanib katta bo'lgan avlod ham, yurtini sevuvchi, faxrlanuvchi eng muhimi sadoqat tuyg'usi shakllangan bo'ladi. Mana shunday yurtini madh etgan she'rlaridan biri shubhasiz "Serquyosh o'lka" she'ridir.

“Do'stlar mening yurtimni
O'zbekiston, deydilar.
Dong'i tutgan dunyoni
Bog'-u bo'ston, deydilar.
Osmoni keng, beg'ubor,
Shifobaxshdir havosi:
Dimog'larni chog' etar
Uning shodon navosi.”¹

Beg'ubor, sodda satrlar bilan ravon qilib yozilgan bu she'rni o'qigan yosh kitobxonning ko'z o'ngida butun O'zbekistonning xaritasi chiziladi desak hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Aslida, yozuvchi, shoir bo'lish uchun Olloh bergan iste'dod bilan birga o'z ustida ishlash, dunyoqarashni kengaytirish juda ham zarur, lekin o'zidagi his-tuyg'uni qog'ozga tushirishining o'zi bilan doston yozgan shoirlar, roman yozgan yozuvchilar bisyor. Bu asarlarni o'qiganda, oqni qoradan ajrata oladigan, hayot tajribasiga ega inson o'zi uchun nimadir olishi tabiiy. Hech

¹ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent, 2006. – B. 116.

bo'lmaganda qandaydir xulosa chiqaradi. Lekin bolalar yozuvchisi bo'lish katta mas'uliyat bilan birga, katta bilimni ham talab qiladi. Chunki yozuvchi asari bilan bolaga xulosa, hordiq emas, tarbiya beradi, uni shakllantiradi, ertaga qanday inson bo'lib kamol topishiga o'z xissasini qo'shadi. O'zi o'ylagan chuqur ma'no, hayotiy haqiqatlarni bolaga bola tilida so'zlashi, asli qog'ozga tushiraman desa varoqlar ketadigan gaplarni bir jumla bilan bolaga tushintirib berishi kerak.

“Sevinaman, hali yoshman, ko'p yashayman

Bu o'lkaning saodati – baxti uchun.

Yana o'qib, yana kulib ko'p yashayman

Shu ko'plarning ko'pi bo'lib o'lkam uchun.

Ha! Mamlakat shunday va'da beray senga:

Butun umrim sening porloq hayotingga!”²

Yuqorida keltirib o'tgan she'rimizdagi mazmun ham yurtga muhabbat, sadoqat va fidoiylikni bolalarga singdirishda, ularda vatan tuyg'usini shakllanishida katta turtki vositasini o'taydi desak, ayni haqiqatni gapirgan bo'lamiz. Bu kabi she'rlar bola tarbiyasida, kamolida ertaga kim bo'lib yetishishida jamiyatga ko'makdoshdur. Shu o'rinda Mamasoli Jumaboevning quyidagi fikrlarida ayni shu xususda so'z boradi: “Bolalar yozuvchilari o'z asarlari bilan yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o'stirib, chiniqtirishda, ularni vatanparvar va mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, mustaqil davlatimizga katta yordam berishlari kerak.”³ Zafar Diyor esa, aynan shunday yozuvchilardan edi.

Sevimli bolalar yozuvchisi Zafar Diyorning hayot yo'li bizga ko'plab adabiyotlardan ma'lum. Zafar Diyor asli “1912-yilda Namangan viloyatining Samsoqtepa qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. Zafar Diyorning oilasi 1916-yilda Toshkentga ko'chib keldi. Shoir 1923-yilda eski usuldagi maktabda, 1925 –yildan boshlab esa, 7- bolalar uyida tarbiyalanadi. Zafar diyorning ilk she'ri yosh shoirlarning ‘Qurilish kuylari’ degan to'plamida nashr etiladi. Shoirning birinchi she'riy to'plami 1933-yilda “Qo'shiqlar” nomi bilan bosilib chiqadi. Uning she'rlaridagi asosiy g'oya Vatanga muhabbat, baxtli bolalik, ilm-ma'rifatga targ'ibotdan iborat edi. U 1934-yillarda “Sharq tongi” gazetasining adabiyot va maktab bo'limida adabiy xodim, keyinroq “Sharq tongi” gazetasining mas'ul kotibi bo'lib ishlaydi. 1941-46- yillarda hozirgi “O'zbekiston ovozi” gazetasida mehnat qildi. Toshkent davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetiga kirib o'qishni davom ettirdi, bilimni oshirish

² Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent, 2006. – B. 118-119.

³ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti . – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 3.

ustida qunt bilan ishladi. Xalq og'zaki ijodini, o'zbek va sharq klassikalarining asarlarini sevib o'rgandi.”⁴

Zafar Diyorning asarlari yosh kitobxonlarni uzoq vaqtdan beri o'ziga rom etib, avloddan avlodga o'tib, yoshlar tarbiyasida muhim vositaga aylandi. Shoirni yosh kitobxonga aziz va yaqin qilgan narsalardan biri shuki, u butun aqli, qobiliyati, qalam kuchini yosh avlodga qaratgan, bolalarning shodlik va tashvishlari, orzu-intilishlarini anglab, ko'ngilga joylagan. Zafar Diyorda bolalar yozuvchisiga doir nozik ta'b, pedagogcha donolik, soddalik, g'amxo'rlik, hushyorlik va bag'rikenglik mujassam edi. Uni bolalarga yaqinlashtirgan yana bir asosiy xususiyat uning samimiyligi edi.

Zamondoshlari ham Zafar Diyorning xotirlar ekan u haqida juda iliq fikrlar bilan yodga olardilar. “Men Zafarni o'ylasam, - deb yozadi Hakim Nazir, - uni nuqul shod-xurram bolalar qurshovida, quvnoq chehrasidan nur taralib, sertabassum lablaridan she'r durdonalari yog'ilayotganday ko'raman. Chindan ham u bolalarga juda yaqin edi. Maktabalar va bolalar uylarida, kutubxona va bog'chalarda bot-bot bo'lar, yosh kitobxonlarga yangi-yangi she'rlarini bolalarcha muloyim, sodda, shirali ovozi bilan o'qib berar, ayrim she'rlarini yoddan o'xshatib deklamatsiya qilar, bolalardan ham she'r o'qitib eshitardi. Shunda u o'zining qaysi she'rlarini bolalar ko'rigidan yaxshi o'tganini, qaysi she'rini ko'proq sevib qolganlarini ko'rar, bolalarga yoqtirish uchun qanday she'rlar lozimligini fahmlab olardi. “biz bolalarga nuqul o'rgatibgina qolmay, ulardan o'rganib ham turishimiz kerak”, derdi.”⁵

Zafar Diyorning yosh avlodga qoldirgan merosi juda ham qimmatli va sermazmundir. “Uning ayniqsa, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga yozganlari diqqatga sazovordir. Uning “Qo'shiqlar”, “Mashinist”, “Tantana”, “She'rlar”, “Muborak”, “Bizning qurolimiz”, “Bizning oila”, “Sovg'a”, “Chaman”, “Asarlar”, “Suv bilan suhbat” ayni shu yoshdagi bolalar uchun tortiq bo'ldi. Zafar Diyor bolalarga doston yozishni boshlab bergan yozuvchi hisoblanadi. “Mashinist”, “Kazbek”, “Madridan kelgan mehmon”, “Qotil”, “Qo'riqchilikda” kabi dostonlar; “Burgut”, “Yangi ertak”, “Nega xo'roz qichqiradi tonggacha?” singari ertak-dostonlar. Ikkinchi jahon urushi paytida “Kichkina jangchi” she'ri kabi juda ko'plab she'r va dostonlari bor.”⁶ Biz shoir ijodidagi ayrim asarlarnigina keltirib o'tdik.

Xulosa o'rnida shuni aytmochimizki, Zafar Diyor ijodi haqida qancha yozsa shuncha kam. Uning yosh avlodga qoldirgan durdona asarlarini har bir satri bir olam ma'no, mazmundir. Biz yuqorida keltirib o'tgan doston, she'rlari “hamir uchidan patirdek”. Bizning mana shunday yurtni ulug'lovchi eng muhimi esa, bu tuyg'uni bizning kelajagimiz bo'lgan bolalar shuuriga singdirishga muvaffaq bo'layotgan

⁴ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2008, - B. 155.

⁵ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2008, - B. 155.

⁶ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2008, - B. 156.

yo'zuvchilarimiz bor. Zafar Diyor garchi bu dunyonda biz bilan zamondosh bo'lmasa ham uning qilgan mehnatlarini, yaratgan asarlarini maktabgacha yoshidagi boladan tortib keksalarimizgacha bilishida sevib mutolaa qilishadi.

Adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent, 2006. – B. 116-118-119.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2008, - B. 3-155-156.
3. <https://uz.m.wikipedia.org>